

---

MAHFUZA IMOMOVA

---

# YORUG‘ YO‘L

*She‘rlar*



«ADIB»

Тошкент – 2014

OO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(O')7

I90

**Mas'ul muharrir:**

**Mahmud Toir,**

*O'zbekiston xalq shoiri*

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan  
nashrga tavsiya etilib, «Ijod» fondi tomonidan  
moliyalashtirilgan.*

**Imomova, Mahfuza**

I45 Yorug' yo'l: she'rlar/M.Imomova. – Toshkent:

«ADIB», 2014. – 48 b.

ISBN 978-9943-4277-0-9

**OO'K: 821.512.133-1**

**KBK: 84(O')7**

© M.Imomova, 2014

ISBN 978-9943-4277-0-9

© «ADIB» nashriyoti, 2014

---

## MO‘JAZ MO‘JIZA

*“Birinchi kitobim” ruknida chop etilayotgan kitoblar yurtimiz adabiy hayotida muhim voqelikka aylandi. Ayni shu xayrli amal tufayli o‘nlab yosh qalamkashlarning to‘plamlari keng o‘quvchilar ommasiga yetib bordi va, tabiiyki, bugun o‘z aks-sadosini berayotir.*

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan har yili o‘tkazib kelinayotgan respublika yosh ijodkorlar seminarida o‘nlab yangi nomlar, yosh iste’dodlar kashf etilmoqda. She’riyat, nasr, dramaturgiya, publisistika, bolalar adabiyoti, adabiyotshunoslik kabi qator janrlarda muvaffaqiyat bilan qalam tebratayotgan yosh ijodkorlarning eng yaxshi asarlari muttasil nashr etib kelinmoqda. Jumladan, 2013-yilda Do‘rmon ijod uyida bo‘lib o‘tgan yosh ijodkorlar seminarida ham*

---

*ana shunday qo'lyozmalar saralab olindi va ular jajji kitoblar – mo'jaz mo'jizalar sifatida siz muhtaram kitobxonlar hukmiga havola qilinmoqda.*

*Bu ruknda nashr etilayotgan kitoblar adabiyotga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning samarasidir. O'ylaymizki, yaratilgan bu imkoniyatlar yosh ijodkorlarning baland parvozlariga zamin vazifasini o'taydi.*

## VATAN

Necha tog'lar turibdi tikka,  
Mardonavor, mag'rur va bardam.  
Boshiga qor tushsa – ko'nikkan,  
Yelkasini oftob ursa ham.

Necha bog'lar ochmoqda chiroy,  
Maysalarga burkanar dovon.  
Xarsanglarga urilsa-da soy,  
Etar ezgu yo'llarda davom.

Men-chi, bitta so'zni loaqal  
Topolmadim dil lug'atidan.  
Baxtiyorman boshim silagan  
Insonlarning muhabbatidan.

Ishon, oldga tashladim qadam,  
Hayotimda ko'rdim ko'p ma'ni.  
Hech bo'lmasa –  
Shamol bo'larman  
Bayrog'ingni hilpiratgani!

## DUO QIL, ONA

Bir-bir o'tib ketar kunlarim,  
Yetolmasman quvlab ortidan.  
Tangrim, o'zing matonat bergin,  
Ber zalvorli tog'lardek chidam!

Hayot, sen ham yashashni o'rgat,  
Kam bo'lmayin hech fursat eldan.  
Men sog'ingan kunlarni ko'rsat,  
Armonga joy qolmasin dilda.

Ota, baland ko'tar ruhimni,  
O'ksinmayin huda-behuda.  
Mulzam bo'lmay, duo qil, Ona,  
Umid tikkan Vatan oldida!



## ONAJONIM

### 1

Bo'y-u bastim o'sar, o'sar yoshim ham,  
Ortib borar mening kun sayin xarjim.  
Beshovlonni qanday o'stirdi onam,  
Bir o'zimni eplay bilmadim. Garchi  
Hayot hayotligin qildi baribir,  
Goh cho'kib qoldilar, gohida toyib.  
Hatto bo'yini ham bizga ilindi,  
Bizlar o'sib ketdik – onam pasayib.

### 2

Qora sochlaringiz borar oqarib,  
Qaddingiz egilar, ko'zingiz xira.  
Bizni deb boshingiz tashvishdan arib  
Yashagan kuningiz ko'rmadim sira.  
Menga imkon bering, menga ishoning,  
Sizni iztirobga qo'ydim, bilaman.  
Onajon, baxt tomon yetay deb qoldim,  
Onajon, men sizni baxtli qilaman!

\* \* \*

Ishq daryosi oqarmi sokin,  
Tog'lar qori ketarmi erib.  
Kapalak-la sirlashdim gohi,  
Faqat sizni sog'inaverib.  
Turnalardek tizildi yoshim,  
Torta-torta sog'inch jabrini.  
Zarurmidi sinamoq doshin,  
Yuragi tosh qizning sabrini?  
Bugun o'tar, ertani kutib  
Sochlarini turmaklar hilol.  
Siz quyoshga ko'zguni tutib,  
Unutarsiz oyni ehtimol.  
Gap otarsiz so'ngra shodumon  
Bahor chog'i atirgullarga.  
Shunda meni qurshagan gumon  
Boshlab ketar olis yo'llarga.  
Ishq qandayin ilohiy libos,  
Tovlanadi yal-yal, bejirim.  
Ovvoradir goh qalam, qog'oz,  
So'ryverib har gal kechirim.  
Baxsh aylbon yurakka surur,  
Go'zal xayol quchadi har dam.  
Netay, endi arzimayapsiz  
Hech bo'lmasa ishonchimga ham.



## YORUG' YO'L

Xayol daydib yurar qaqroq yerlarda,  
Qadamim quyoshga tomon burilar.  
Olovbosh yantoqlar kabi serzarda  
Nuqul ro'paramda sarob ko'rinar.

Soyalar tovushi kelar uzoqdan,  
Ichikkan dil bilan tutarman quloq.  
Ruhim sinovlarga chiniqqan chog'da,  
Borarman tobora kunga yaqinroq.

Serg'alva hislarga begona yurak  
Nurlarga chulg'anib ketdi – chaman, gul.  
Orzulardan marjon tuzmog'im kerak,  
Qarshimda chorlaydi tongdek yorug' yo'l!



## QALDIRG' OCH

“Qaldirg' och, qaldirg' och, eshigingni och!”  
Munchoq ko'zlaringga ko'ztumor bo'lay.  
Suhbatlar quramiz beun, betilmoch,  
Yoningda yuksalay, yoningda gullay.

Qaldirg' och, sochlarim bo'ldi qirq o'rim,  
Umidlar talpinib borar samoga.  
Bir bor huzuringga tushgandi yo'lim,  
Kelganimdan buyon yorug' dunyoga.

Qaldirg' och, qaldirg' och, eshigingni och,  
Mitti qanotlaring qoqib kel dadil.  
Qo'limda turibdi baxt, umid, ishonch,  
Qara, men uyingga quruq kelmadim!



## CHECHAKLAR UYG'ONDI

Chechaklar uyg'ondi bir hovuch suvdan,  
Yashil libosini kiydi tevarak.  
Turibdi anchadan buyon sotuvda  
Zumrad toshchalardan yasalgan zirak.

Aslida o'chmasdan yaltir-yultirga,  
Ammo bir ko'rishda qoldi-da yoqib.  
Quchog'im to'ldirib muattar gulga,  
Bahorga bormoqchi bo'lgandim taqib.

Hozir xabar oldim. Haliyam yopiq,  
Do'konni bugun ham ochmasa kerak.  
Deraza ortida turar tovlanib  
Men uchun yasalgan zumradko'z zirak!



## BAHOR

Tun negadir ko‘rinmay qoldi,  
Tunamoqda balki yo‘lakda.  
Oy yorug‘lik ichra yo‘qoldi.  
Quyosh chiqdi...  
Shaffof ko‘ylakda.

Chapak chalib qo‘ydi chumchuqlar,  
Har chechakka kirdi issiq jon.  
Bahor keldi zaminni yo‘qlab,  
Uch faslni qilgach imtihon.



## XAVOTIR

Bugun ham yetmoqda o'z poyoniga,  
Ertangi kunimga eshikni ochib.  
Onamning beminnat soyaboniga  
Bosh tutib yuribman, do'llardan qochib.

Kun kelib otilsa palaxmon toshi,  
Yangi bir hayotga ko'nixsam sekin,  
O'zganing non-tuzi, ichirgan oshi  
Onamning tuzidek beminnatmikin?



## MUHABBATGA SAVOL

Borar yo‘lim aniq,  
Borar yo‘lim chin...  
Ketyapman...  
Atrofdada bir uyum xazon.  
Ortimdan ergashib kelyapsan nechun?  
Men senga bog‘lanib ulgurdim qachon?

Baribir ketyapman...  
Yuragim og‘rib...  
Ko‘zlaring tubiga bo‘lmoqdaman g‘arq.  
O‘rtada bepoyon masofa bordir.  
Kattadir, azizim, o‘rtamizda farq.

Oh, chalg‘ib ketyapman  
Orzularimdan!  
Menga azob berar bu ayri dunyo.  
Muhabbat, oxirgi so‘zni o‘zing ayt –  
Ketaymi,  
Ketaymi,  
Qolayinmi yo?!

## TONG BILAN TUN

Tong bilan tun  
Yaqin dugona,  
Sirlashadi pana-panada.  
So'zlashadi goh shivir-shivir,  
Inoqlashib ketar yanada.

Ularga ko'z tegar...  
Hademay  
Boshlanadi kek, gina, kudrat.  
Tong – otadi nishonga tegmay,  
Tun – cho'kadi borliqni sudrab...



## YURAKKINAM

Yurakkinam...  
Faqat og‘rima,  
O‘zingni tut, o‘zingni ushla.  
Sen ko‘rganing biroz vahima  
Va ozgina qo‘rqinchli tushlar.

Yurakkinam...  
Hali soddasan –  
Bir ko‘rasan oqni, qorani.  
Nechun yana tirnamoqdasan  
Bitib ulgurmagan yarani?

Yurakkinam...  
Hadeb og‘rinma,  
Mehringni ber alvon gullarga.  
Yur, ketamiz kichik bosh bilan  
Oldindagi katta yo‘llarga...



## XAYOL MAVSUMI

Xayolning mavsumi chiqdi avjiga,  
Sukunat suroni oldi bir oz tin.  
O, ishqing ummonin sirli mavjiga  
Singib ketmoqdaman, yolg'izim, bu tun.

Ne bo'lsa bo'ladi, endi qaytmayman,  
Axir, faslim ham shu, shudir ayyomim.  
Yuvib ketmasa bas yillar to'lqini  
Ko'ngling kitobiga yozilgan nomim...





## **XIJOLAT TORTARDI**

Xijolat tortardi aylanmay tili,  
Kuzatib qo‘yganda ahvolim zimdan.  
Xayriyat, o‘zining xatosin bilib,  
Baxt bugun tushmoqda izimdan...

Olam-olam chechakni tutib,  
Sochar sirli samovot rangin.  
Atrofigndan birma-bir o‘tib,  
Eshitilar shodlik jarangi.

Musichalar kuylaydi ma’sum,  
Bog‘-u rog‘ni fayzga to‘ldirib.  
Xayolimda qilgancha ta’zim  
Baxt yonimga oldi o‘ltirib...

## DERAZAMDAN SIRG'ALAR YOMG'IR

Derazamdan sirg'alar yomg'ir,  
Baxil bulut haydab yuborgan.  
O'zin qayga urmasin, oxir  
Tuproqlarning bag'riga borgan.

Derazamdan sirg'alar dunyo,  
Ko'zlarimga bosgancha muhr.  
Mayda-chuyda tashvishlar bilan  
O'tib borar bir aziz umr.

Derazamning ortidagi o'y,  
Qachon axir tinchlik berasan?  
Hadeb avrayverma, endi qo'y,  
Meni asrolmagan derazam.

## **QAYDAN CHORLAYAPTI...**

Qaydan chorlayapti, qaydan bu ovoz,  
Meni olislarda tanirmi kimdir?  
Garchi notanishga o'xshaydi bir oz –  
Bu chorlov – xayolchan bolaligimdir!

Oldga undayvergan bu yo'llar armon,  
Sog'inchli manzilga eltadi bazo'r.  
Ovoz chaqiradi: «Kel topib. Borman!»  
Esladim  
va lekin qaytolmam.  
Uzr!..



## QIZG'ONAMAN

Yorim, sizni shu'la sochgan  
Tunchiroqdan qizg'onaman.  
Ko'klam chog'i quchoq ochgan  
Bog'-u rog'dan qizg'onaman.

Qo'l ursangiz titrab ketar  
Qizg'aldoqdan qizg'onaman.  
Oyog'ingiz tegib o'tar  
Tosh-tuproqdan qizg'onaman.

Mayli, meni baxil desin,  
Telba atasinlar hatto,  
Bo'yningizni quchib turgan  
Bo'yinbog'dan qizg'onaman.

Qizg'onaman o'zimdanda ham,  
Qaydan oldim buncha rashkni.  
Men yomondan tortib olar  
Yaxshiroqdan qizg'onaman...

## EY ODAM

Ey odam, o'zingni suya hamma vaqt,  
Takrorlab qo'ymagin tag'in xatongni.  
Og'ir lahzalarda – chekkaningda dard,  
Yordami tegmaskan hatto otangning.

Qoqilib-turtinib o'tarsan yo'ldan,  
Zimiston tunlarga berasan bardosh,  
Kun kelib dilingni yoritgan nurdan  
Ko'klarga talpinib ko'targaysan bosh!



## QANDAY YAXSHI

Qanday yaxshi sizni o'ylamoq,  
Borligingiz men uchun baxtdir.  
Ismingizni dilga joylamoq,  
Vaslingizni kuylamoq shartdir.

Qanday go'zal sizni sog'inmoq,  
Hijroningiz eng shirin darddir.  
Ko'zingizga to'yib termulmoq  
Dilimdagi eng buyuk ahddir.

Qanday fayzli siz-la ko'rishmoq,  
Orzularim parvozga taxtdir.  
Ikkimizga quyoshdek porloq  
Hayot nasib aylasin taqdir!



## **TERAKLAR KO‘KLARGA TALPINAR**

Teraklar ko‘klarga talpinar mudom,  
Chinorlar asrlab ko‘rmoqda rohat.  
Tog‘lardan qaytmoqda hatto aks sado,  
Sen qaytmayapsan faqat...

Bugun pasayibdi tepalik hadsiz,  
Fasllar almashdi bo‘lib betoqat.  
Biroq hamon o‘rning turar egasiz,  
Sen qaytmayapsan faqat ...

Qaldirg‘ochlar qaytib qurdi inini,  
Chug‘urlab ismingni aytishar bot-bot.  
Yuragim sezyapti sog‘inganingni.  
Lekin qaytmayapsan...  
Sen faqat...  
Muhabbat!



## TUSHUNGIL

Tushungil.

Yoningga birda emas bir

Ketgim keladi-yu, oyog'im tortmas.

Meni ham o'ylagin. Tashvishim og'ir,

Mening ham yiqqanim – o'zimdan ortmas.

Tushungil...

Hammasi o'zimdan o'tdi,

Hayot kaltaklarin to'xtatmas. Qara –

Men ham kelishingni orziqib kutdim,

Mening ham yuragim muzladi. Mana.

Tushungil.

Azaldan taqdir tizgini

O'ylardim qo'limda aylanadi deb.

Yaxshiyam, hijroning yamladi meni,

Yaxshiyam, visoling bitirmadi yeb.

## SEN BOSHQASAN

Sen boshqasan...  
Men boshqa.  
Faqat ko'nglimiz yaqin.  
Har neki tushdi boshga,  
To'ladik hijron haqin.  
Men boshqaman...  
Sen boshqa.  
Faqat yo'limiz yaqin.  
Bilmadim, bu ketishda  
Topamiz qanday yakun?  
Biz boshqamiz...  
Biz boshqa.  
Taniymiz kuzni, qishni.  
Endi qaytib kim ko'rar  
Biz ko'rgan tushni?

## ISHQ TILAGI

Tog'lar osha keling bir huzurimga,  
Yugurib chiqaman qarshingizga men.  
Begim, qanot bo'ling holsiz ruhimga,  
Talpinib yashayman arshingizga men.

Bahor gullarini olib keling siz,  
Tashna guldonlarga solib qo'yayin.  
Ko'zimga sig'magan ko'zyoshlarimni  
Shodon kunlarimga olib qo'yayin.

Holimga kulmasin toki g'animlar,  
Dunyolar shodlanib kulsin baxtimdan.  
Sochlarin qirq o'rib yurgan sanamlar  
Afsona to'qisin muhabbatimdan.

Uzoq tog'lar oshib qayting yonimga...



## **BIR NAVO ISTADIM**

Bir navo istadim hur, jarang,  
Bir nafas o'zimdanda ortgani.  
Oppoq tush ko'rsaydim, surmarang,  
Tunlarda ko'zimga tortgani.

Umidlar bog'lansa – xo'p uzun,  
Ko'hna asrlarning shajarasiday.  
Ko'ngil kemptiklarin berkitmoq uchun  
Bir udum bo'lsaydi, bajaradigan.

Ko'p yo'llar yursaydim, o'zimga  
Ortimda qoldirib aniq-ravon iz.  
Surmasa surmabdi tunni ko'ziga  
Hali tonglarini anglamagan qiz...

## NASTARIN

Nastaringul,  
To'kilsang to'kil –  
Nima qildim seni avaylab?  
Nigohingga ilingandi dil,  
Qara, shamol kelar ataylab.

Nastaringul,  
To'kilsang to'kil,  
Yaproqlaring qolsin o'zgarib.  
Faqat seni sog'inganim bil,  
Suymaganim bilgin o'zgani...

Nastaringul,  
To'kilsang to'kil,  
Gullamoqqa so'z ber kun o'tib.  
Yana qayta dunyoga kelgil,  
Bahorni-da, meni-da kutib...

## OJIZLIK

Nima qilish kerak  
Yaproqlar tushsa?  
Yulduzlar uchganda noma'lum taraf.  
O'zimga og'irlik qilganda jussam,  
O'kinsam besamar yillarga qarab.

Nima qilay axir?  
Qo'llarim bog'liq,  
Sochimni tortqilab ketadi shamol.  
Oy osmon toqida turar osig'liq,  
Balki ko'kda u ham emas bermalol...



**SEN TOMONNI  
GO'ZAL DER**

Sen tomonni go'zal der, gulim,  
Sen tomonda bahor avjida.  
Tushlarimni nurga to'ldirgan  
Sen tomonni sog'indim juda.

Men tomonda har kungi holat,  
Yig'i, tashvish, uchta-to'rtta she'r.  
She'rlarimdan avval, yolg'izim,  
Hayotimga kerakdir tahrir.

Sen tomonni sog'indim, gulim,  
Sen tomonda yo'qdur sensizlik.  
Sen tomonda qolar ilhomim,  
Men tomonda mudom she'rsizlik...



## **SHE'RIYAT**

Ta'qib etayotir dilni muvaqqat  
Yaproqning ko'zida jovdiragan nur.  
Sog'inchning suratini chizmoqda faqat  
Xayolning pinjida turgan tasavvur.

Lojuvard tuyg'ular rostlaganda qad,  
Yurakning shovqini quloqqa inar.  
Men endi eng go'zal muhabbat  
Va sen uchun yashagim kelar...





## BU KECHA

Bu kecha –  
Yostig'im yulduzga to'lsin,  
Havoda tarqasin g'am-u o'y.  
Onajon, yurakni isitib tursin,  
Ustimga osmonni yopib qo'y...

Ertaklar aytib ber, nurafshon  
Tonglarga talpinib yumay ko'z.  
Yoriltosh darz ketsin bu oqshom,  
Uyqudan uyg'onsin o'gay qiz.

Ko'ksimni to'ldirib bir nafas,  
Zavq olay mehrning rangidan.  
Onajon, bu kunlar hisobmas,  
Yashashni xohlayman yangidan...

Onajon, bu kunlar hisobmas...



## KECHIR

Kechir, seni unutib qo'ydim,  
O'ylarimdan surdim ko'p nari.  
Yo'llarimni berkitib qo'ydi  
To'kiluvchan bahor gullari.

Subhidamda diydoring tilab,  
Turnalarga chiqqandim peshvoz.  
Aytolmagan so'zlarim bilan  
To'lib qoldi bir parcha qog'oz.

Sog'inmayin qo'ydim hattoki,  
Shukur, endi yarim ko'nglim to'q.  
Mensiz baxtli bo'larsan, balki  
Mening sensiz baxtli bo'lgim yo'q.

Kechir, seni unutib qo'ydim,  
Yuragimdan quvdim ko'p nari.  
Faqat meni kechirsa bo'ldi,  
Yashab yasholmagan kunlarim...

## YO'LLAR...

Yo'llar eskiradi,  
Yillar keksayar,  
Har bir olmoqlikning bordir qaytimi.  
Shu kichik ko'ksimda shubha ulg'ayar,  
Tog'larga suyansam yiqilmaydimi?

Lolarang yurakda kechirdim nuqul  
Ayni bahorlarda gullash paytini.  
Mudragan tonglarga ishonsam bugun,  
Tashlab ketmaydimi? Aldamaydimi?

Havoyi hislarim ochirmayin ko'z,  
Umidbaxsh lahzalar izmiga qaytdim.  
Men o'sha – bir paytlar o'yinqaroq qiz,  
Sog'inchning taftida yuvvosh ulg'aydim.

Yo'llar yangilana,  
Yillar almasha,  
O'tmishning tutuni o'rlaydi yodga.  
Qorani qora deb, oqni oralab,  
Yarashib turibman bugun hayotga.

## TANISHTIRUV

Men zamin qiziman!  
Subhi sodiqdan –  
Oltin dalalarga otlanadigan.  
Sharqiroq anhorlar ila sirlashib,  
Namxush iforlardan shodlanadigan.

Men osmon qiziman!  
Nigohim tiniq –  
Somon yo‘llaridan uzun yo‘lagim.  
Egnimda hilpirab turar bejirim  
Kamalakdan tikkan rangdor ko‘ylagim.

Men Vatan qiziman!  
Kimligim tayin –  
Bo‘lishsam o‘ziga tutaman jonni.  
Ko‘ngilchan ko‘nglimga joylashtirayin  
Orzulari oydin O‘zbekistonni!

## BOLALIK

Oq tonglarda yodinga tushar  
Dilimni o'rtagan olis kuy.  
Bir osmon yulduzlar va o'sha  
Bolalik. Keng supa. Eski uy.

Oymomoga aytardim sirlar,  
U chog'lari beg'ubor dardim.  
Bolalikda hatto yomg'irlar  
Juda balandlardan yog'ardi.

Qoqio'tlar unib har yonda,  
Hovlimizga kelardi bahor.  
Bobom o'tin yorar tomondan  
Boshlanardi katta anorzor.

Bekinmachoq o'ynasak har gal,  
Topilardim hammadan oldin.  
Endi o'shal o'yinlarimdan  
Bolalikni topolmay qoldim.

Ne istashim bilolmay gohi,  
Bu holimga yotlar kulyapti.  
Kecha katta bo'lmoqchi edim,  
Bugun bola bo'lgim kelyapti.



## **YASHASHNI O'RGANIB**

Men yashashni o'rganib oldim,  
Ko'niktirdi taqdirning izmi.  
Qovoqlari qizarmay qoldi  
Har qadamda yig'loqi qizning.  
Telbalarcha xayollar surib,  
Mo'jizalar kutmayman endi.  
Bemehrga dilimni yorib,  
Iztiroblar yutmayman endi.  
Shunchakimas tanlagan yo'lim,  
Haq qo'llasa – omon bo'laman.  
Yaxshilarga yaxshilik qilib,  
Yomonlarga yomon bo'laman.  
Yomonga ham yaxshi bo'l deysiz,  
Hikoyatlar aytasiz yana.  
Bu dunyoda hamma odam ham  
Birdek yaxshi emaskan, ona.  
Bola edim, balki g'o'r edim,  
Soddalik bor dilning qatida.  
Yo judayam ko'p qolib ketdim  
Ertaklarning mamlakatida.

Hayot katta bozorga o'xshar,  
Hislarimni qamayman ichga.  
Toki mening yuragimni ham  
Talab ketolmasin yulg'ichlar.

### VAQT

Mudrayapsan hanuz quyoshni to'sib,  
Kutib turganimni bilib, atayin.  
Men-ku imkon qadar boryapman o'sib,  
Sen tugab boryapsan kuttirgan sayin.

\* \* \*

Buncha shovqin solar bu shahar –  
Eshitgisi kelmas boshqani.  
Jur'at qilmay yurar shamollar  
Baland binolardan oshgani.

## **BAHOR KELAR**

Sen nimadan chekayapsan g'am,  
Kam edimi dilning hasrati.  
Ko'rmayin deb kiprigingda nam,  
Ko'z yoshimdan seni asradim.  
Sezadirman, yo'llaring yorug',  
Dilginangda g'ubor yo'q sening.  
Balki bir kun bo'larsan forig'  
Hijronidan taxir sevgining.  
Bas, o'zingni ayblama, yetar,  
Bu azaldan bergan qismati.  
Shukr, xudo nafis she'rlardan  
Va sog'inchdan bizni qismadi.  
Birda ko'nglim osuda topgan,  
Birda ruhim balanddir, pastdir.  
Singlim, hali biz yig'layotgan  
G'amlar asli g'am ham emasdir.  
Noliganga dunyo tor kelar,  
So'zlarimni olmagin malol.  
Bahor kelar –  
Gul bahor kelar,  
Faqat uni kulib kutib ol!..



## MEN HAM

Men ham yashayapman ming yildan buyon,  
Yuzimda ming yillik ko'rinmas ajin.  
Sen menga holimni aylagin bayon,  
Ey ko'kka termulib turgan munajjim.

Devorning ortida qolgan shamoldek,  
Bir nafas o'zimdanda ketolmam nari.  
O hayot, tarozing teng emas sening,  
Og'irlashib borar hijron kunlari.

Ko'pirgan dengizdek g'azablanar vaqt,  
Hattoki suvda ham qoldirar izin.  
Men qachon yoningga yetadirman, ayt,  
Yuksakka qadalgan tole yulduzi.



## IKKIGA BO‘LINIB...

Ikkiga bo‘linib ketdi bitta yo‘l.  
Tumanli havoda adashdi hislar.  
Baxtiyor kunlarni unutib butkul,  
Ketarsan sen qanday ro‘yoni istab?

Balki xato qildim,  
Balki ranjitdim,  
Bekindim bog‘larga solmayin dovruc.  
Oqibat dilimni tiralab ketdi  
G‘aflatzor ichinda turgan bir og‘riq.

Ketarsan – cho‘qqilar senga past adir,  
Ketarman – so‘qmoqlar ustida horib.  
Faqat shu lahzada...  
Faqat negadir –  
Yig‘lagim kelmoqda yoningga borib...

## MAYLI

Mayli, qaytib keting qishloqqa,  
Hammasiga qo'l siltab bugun.  
Yo'lingizga necha mushtoqlar  
Ekib qo'ygan balki alvongul.

Ayriliqning suroni bilan  
Huvillatib keting xonangiz.  
Erta-yu kech ko'tarib bilak,  
Duo qilib kutar onangiz.

Keting, tanish yo'llarda yolg'iz  
Ketishingiz balki ko'pgadir.  
Sizni tushlar ko'rar qo'shni qiz,  
Tovonlarin sochi o'pgandir.

Qaytib keting juda qadrdon  
Uyingizga, do'stlar oldiga.  
Yashayvering mag'rur va shodon,  
Hech o'kinmang qismat oldida.

Ketmog'ingiz tayindir bir kun,  
Shahar to'lib qolar firoqqa.  
Erta ko'nglim cho'kmasdan burun,  
Bugun qaytib keting qishloqqa.

Shunda hamma bo'lib baxtiyor,  
Yuraklarga quvonch oladi.  
Faqatgina umidi vayron,  
Bir shaharda bir qiz qoladi.

\* \* \*

Kechagina sizni ko'rdim  
Sharqiroq anhor tarafda.  
Kuyladi bulbullar to'lib,  
Orzular ulkan daraxtda.  
Ko'zlarimga to'ldi hadik,  
Izlarimdan tushdi ozor.  
To'lqinlar ham boqardi tik,  
Nahot oqib ketsa anhor?  
Nahot o'tib ketsa bahor,  
Tashlab gul-u chechagini.  
Nahot bugun kelmasa yor,  
Kelgandi-ku kechagina?..

## BU DIL

Bir qo'shiq istaydi bu dil,  
Bu dilim bir kuy istaydi.  
Dil oynasi siniq, chil-chil –  
Hamon bir rostgo'y istaydi.

Bir vafo istaydi bu dil,  
Vaslining mehrobi yonida.  
Bu safar yutilmay qoldi til,  
Men sizni, men sizni, jonimdan.

Bir oshiq istaydi bu dil.



---

## MUNDARIJA

Mo'jaz mo'jiza.....	3
Vatan.....	5
Duo qil, ona.....	6
Onajonim .....	7
«Ishq daryosi oqarmi sokin...».....	8
Yorug' yo'l .....	9
Qaldirg'och .....	10
Chechaklar uyg'ondi.....	11
Bahor .....	12
Xavotir .....	13
Muhabbatga savol .....	14
Tong bilan tun .....	15
Yurakkinam .....	16
Xayol mavsumi .....	17
Xijolat tortardi.....	18
Derazamdan sirg'alar yomg'ir .....	19
Qaydan chorlayapti... ..	20
Qizg'onaman .....	21
Ey odam .....	22
Qanday yaxshi .....	23
Teraklar ko'klarga talpinar .....	24
Tushungil .....	25

---

Sen boshqasan .....	26
Ishq tilagi .....	27
Bir navo istadim .....	28
Nastarin .....	29
Ojizlik .....	30
Sen tomonni go'zal der.....	31
She'riyat .....	32
Bu kecha .....	33
Kechir .....	34
Yo'llar.....	35
Tanishtiruv .....	36
Bolalik .....	37
Yashashni o'rganib .....	38
Vaqt.....	39
«Buncha shovqin solar bu shahar...».....	39
Bahor kelar .....	40
Men ham .....	41
Ikkiga bo'linib... ..	42
Mayli .....	43
Kechagina sizni ko'rdim .....	44
Bu dil .....	45

*Adabiy-badiiy nashr*

MAHFUZA IMOMOVA

YORUG‘ YO‘L

*She‘rlar*

Muharrir: *U.Qo‘chqorov*

Rassom: *O.Qozoqov*

Badiiy muharrir: *A.Mamasoliyev*

Texnik muharrir: *N.Suvonov*

Nashriyot litsenziyasi №181.08.12.11. Bosishga 2014-yil 20-yanvarda berildi. Bichimi 70x90 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Ofset bosma usulida bosildi. «ArnoPro» garniturası. Shartli bosma tobog‘i 1,5. Nashr-hisob tobog‘i 1,8. Adadi 20 000 nusxa. Buyurtma № \_\_\_

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «ADIB» nashriyoti.  
100128. Toshkent. «O‘zbekiston» ko‘chasi, 16-uy.  
Tel: (371) 245-89-24.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. 100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.